

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/08.05.2025.K/T.130.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

XAMZAXO‘JAYEV ASRORXO‘JA AXRORXO‘JA O‘G‘LI

**IKKILAMCHI ORGANIK XOM ASHYOLARI ASOSIDA YUQORI
SORBSION MATERIALLAR OLIH VA ULARNING ADSORBSION
XOSSALARINI O‘RGANISH**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qo‘qon-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundariyasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of doctor of filosofy (PhD)

Хамзахо‘jayev Asrorхо‘ja Ахрорхо‘ja о‘g‘li

Ikkilamchi organik xom ashyolari asosida yuqori sorbsion materiallar olish va ularning adsorbsion xossalarini o‘rganish 5

Хамзахужаев Асрорхужа Ахрорхужа угли

Получение высокосорбционных материалов на основе вторичного органического сырья и исследование их адсорбционных свойств 21

Khamzakhuzhaev Asrorhuzha

Preparation of high-sorption materials based on secondary organic raw materials and investigation of their adsorptive properties 39

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/08.05.2025.K/T.130.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

XAMZAXO‘JAYEV ASRORXO‘JA AXRORXO‘JA O‘G‘LI

**IKKILAMCHI ORGANIK XOM ASHYOLARI ASOSIDA YUQORI
SORBSION MATERIALLAR OLIH VA ULARNING ADSORBSION
XOSSALARINI O‘RGANISH**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qo‘qon-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2024.4.PhD/K902 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat universiteti bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.kokandsu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Payg'amov Raximjon Abdukayumovich
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mamataliyev Nozim Nimadjanovich
kimyo fanlari doktori

Abdulxayev Tolibjon Dolimjonovich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat universiteti huzuridagi PhD.03/08.05.2025.K/T.130.04 raqamli Ilmiy kengashning «27» dekabr 2025 yil soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23. Tel.: (+99873) 542-38-38, (+99873) 542-02-57; faks: (+99873) 542-38-38, e-mail: kokandsu@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (29-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23. Tel.: (+99873) 542-38-38, (+99873) 542-02-57; faks: (+99873) 542-38-38, e-mail: kokandsu@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «16» dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «16» dekabrda № 4 - reestr bayonnomasi)



V.U. Xo'jayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, k.f.d., prof.

N.V. Valiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, PhD., dots.

G'.M. Ochilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ikkilamchi organik xomashyolardan olingan sorbentlar soʻnggi yillarda atrof-muhit muhofazasi va resurslarni qayta tiklash sohasida dolzarb yoʻnalishlardan biri sifatida keng oʻrganilmoqda. Bunday sorbentlar biomassa, oziq-ovqat, qogʻoz, yogʻoch, polimer va maishiy chiqindilar kabi qayta tiklanadigan manbalardan olinib, ularning tarkibidagi uglerodli birikmalar termik, kimyoviy yoki birgalikdagi faollashtirish usullari orqali yuqori gʻovaklikka ega adsorbentlarga aylantirilmoqda. Ikkilamchi organik xomashyo asosidagi sorbentlar yuqori sirt yuzasi, turli funksional guruhlarining mavjudligi hamda mikro–mezo–makro darajadagi ierarxik gʻovak tuzilishli materiallar boʻlganligi tufayli ogʻir metall ionlari, organik ifloslantiruvchilar, neft mahsulotlari va gaz aralashmalarini samarali adsorbsiyalash xususiyatiga ega. Shu bilan birga, ularning ishlab chiqarilishi arzon, ekologik xavfsiz va chiqindilarning ikkilamchi qayta ishlanishini taʼminlagani sababli, sanoat miqyosida suv va havo tozalash tizimlarida, katalitik asos sifatida hamda energiya saqlash materiallari tayyorlashda qoʻllanilishi katta ahamiyat ega.

Jahon miqyosida ekologik va iqtisodiy talablarni inobatga olgan holda qayta tiklanuvchi manbaalardan olinadigan uglerodli adsorbentlarni ishlab chiqarish borasida keng koʻlamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ikkilamchi organik xomashyolar chiqindilaridan foydalanish orqali arzon, ekologik toza va yuqori samarali adsorbentlar olish nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmaydi, balki chiqindilardan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish imkonini beradi. Bu esa resurs sarfini kamaytiruvchi innovatsion yondashuvlarni joriy etish, tozalash texnologiyalarini takomillashtirish va ularning uzoq muddatli samaradorligini taʼminlash imkonini beradi. Shunday qilib, tabiiy va sanoat oqova suvlarini turli ifloslantiruvchilardan tozalash va ishlab chiqarish mahsulotlarini qoʻshimcha birikmalardan ajratish uchun ikkilamchi organik xomashyolar asosida uglerodli adsorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqarish ilmiy va amaliy jihatlariga alohida eʼtibor berilmoqda.

Respublikada mahalliy xomashyolar va chiqindilar asosida samarali adsorbent materiallar olish va ularni oqova suvlarni organik ifloslantiruvchi moddalar, jumladan, neft mahsulotlari va ularning hosilalari hamda boshqa barqaror organik aralashmalardan tozalash jarayonida qoʻllash boʻyicha keng koʻlamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yangi Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasining uchinchi yoʻnalishida belgilanganidek, “Milliy iqtisodiyot barqarorligini taʼminlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish”¹ vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, ikkilamchi organik xomashyolar asosida uglerodli adsorbentlar olish, ularning fizik-kimyoviy va strukturaviy xossalari chuqur oʻrganish, shuningdek, faollashtirish sharoitlari, xomashyo tarkibi va hosil boʻlgan mahsulotlarning adsorbsion samaradorligi oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida» gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «Yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi, 2024-yil 26-sentabrdagi PF–149-sonli “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida boshqaruv tizimini shaffofligini ta’minlash va yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2023-yil 24-oktabrdagi PQ–343-sonli “Ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2018-yil 25-oktabrdagi PQ–3983-sonli “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublikada fan va texnologiyalar rivojlantirishning VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoda uglerodli adsorbentlarni olish, modifikatsiya qilish va ularning g‘ovakli tuzilishini tadqiq qilish sohasida yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar qator nufuzli ilmiy maktablar tomonidan amalga oshirilmoqda. Xususan, Marsh D., Rodríguez Reinoso F., Lua A.C., Ahmadpour A., Moreno Castilla C., Bandosz T.J., Kaneko K., Lua J., Nováková I., Ziolk M. kabi olimlarning ilmiy maktablari biomassa asosidagi uglerodli sorbentlarning tekstura va funktsional xususiyatlarini, shuningdek, ularning turli ifloslantiruvchi moddalarga nisbatan adsorbtsion faolligini chuqur o‘rganishda katta hissa qo‘shgan.

O‘zbekistonda K.S. Axmedov rahbarligida adsorbtsion materiallarning g‘ovak tuzilishi va adsorbtsion xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy maktab yaratilgan bo‘lib, uning vakillari E.A. Aripov, F.L. Glekel, S.S. Xamraev, S.N. Aminov, A.A. Agzamxodjaev, U.K. Axmedov, G.U. Raxmatkariev, S.Z. Muminov, B.N. Xamidov, V.P. Guro, G.R. Narmetova, S.A. Abduraximov, O.K. Ergashev, I.D. Eshmetov, Sh.A. Kuldasheva, D.S. Salixanova, A.B. Abdikamalova, D.J. Jumaeva, D.A. Xandamov, Y.Ya. Yakubov, G‘.M. Ochilov, R.A. Payg‘amov va boshqa olimlar o‘z ilmiy izlanishlari bilan mazkur yo‘nalish rivojiga salmoqli hissa qo‘shganlar.

Shuni ta’kidlash lozimki, hozirga qadar turli manbalardan, jumladan, melaminlangan qog‘oz chiqindilari asosida olingan uglerodli adsorbentlarni dastlabki karbonizatsiya va keyingi termik-kimyoviy faollashtirish sharoitlari, ularning tekstura-kimyoviy tuzilishi hamda organik ifloslantiruvchi moddalarga nisbatan selektiv adsorbtsion faolligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yetarlicha tizimli ravishda o‘rganilmagan. Shu sababli, ushbu mavzuni o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi va milliy fan taraqqiyoti uchun yangi yo‘nalishlarni ochib beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga bog‘liqligi. Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq «Neft, neft-gaz qazib chiqarish sanoati chiqindi suvlarini tozalash uchun adsorbentlar va

reagentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda harakatchan tuproq-qum dispersiyalarida mustahkam tuzilma hosil qiluvchi reagentlar tarkibini yaratish» mavzusidagi davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ikkilamchi organik xomashyolar asosida termik va kimyoviy faollashtirishni amalga oshirish, ularning tuzilishi va adsorbsion xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turli xil ikkilamchi xomashyolar (melaminlangan qog'oz va avtomashina shinalari) asosida uglerodli adsorbentlar olish uchun ularni dastlabki tayyorlash, karbonizatsiya va kimyoviy faollashtirishning maqbul sharoitlarini (harorat, vaqt, faollashtiruvchi reagent miqdori) aniqlash;

sintez qilinib olingan uglerodli adsorbentlarning fizik-kimyoviy tahlillarini (IQ, rentgen difraksiyasi, TG/DTA, BET va SEM usullari) olib borish;

olingan adsorbentlarning sirt maydoni, g'ovak hajmi va taqsimoti, funksional guruhlarining mavjudligini aniqlash, shuningdek, ularning tuzilishi va tekstura parametrlarini baholash;

adsorbentlarning suv eritmalarida organik birikmalarni (fenollar, neft mahsulotlari, va boshqalar) adsorbsiyalash qobiliyatini, shu jumladan adsorbsiyaning maksimal sig'imi, samaradorligi va selektivligini aniqlash;

turli ikkilamchi xomashyo turlaridan olingan adsorbentlarni solishtirish orqali samaradorligi yuqori bo'lgan namunalarni tanlash va texnologik jarayonlarni optimallashtirish;

ishlab chiqilgan uglerodli adsorbentlarning oqova suvlarni organik birikmalardan samarali tozalashdagi amaliy qo'llanish imkoniyatlarini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida melaminlangan qog'oz hamda avtomashina shinalari chiqindilari (FK-M, FK-A) asosida termik va kimyoviy faollashtirilgan uglerodli adsorbent namunalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti ikkilamchi organik xomashyolarni fizik va kimyoviy faollashtirish sharoitlari, uglerodli adsorbentlarning adsorbsion xossalari, sanoat oqova suvlari tarkibidagi organik ifloslantiruvchilarni tozalash xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda zamonaviy va an'anaviy fizik-kimyoviy (rentgenfazaviy, rentgenofluorestsent, termik va elektron-mikroskopik tahlillar) hamda kolloid-kimyoviy (adsorbsion, konduktometriya) xususiyatlarni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikkilamchi organik xomashyolar asosida uglerodli adsorbentlar olish jarayonida karbonizatsiya harorati va kimyoviy faollashtiruvchi modda (KOH) miqdorining g'ovakli tuzilishga ta'siri tizimli ravishda o'rganildi, 1:20 % konsentratsiya nisbatda olingan namunalarda eng yuqori darajada sirt maydoni (600-880 m²/g) hamda mikrog'ovaklarning rivojlanishi bilan ajralib turishi isbotlangan;

avtomashina shinalari va melaminlangan qog'oz chiqindisidan olingan uglerodli adsorbentlarning termik barqarorligi va faollashtirish jarayonidan keyin bo'ladigan fizik-kimyoviy o'zgarishlar IQ-spektroskopiya, XRD, TG/DTA va SEM tahlil usullari yordamida aniqlangan;

ilk bor melaminlangan qog'oz xomashyosi asosida olingan uglerodli adsorbentlarning sirt maydoni, g'ovaklar hajmi va taqsimoti, funksional guruhlarining mavjudligi shuningdek, ularning tuzilishi va tekstura parametrlari aniqlangan;

olingan uglerodli adsorbentlarning noorganik va organik birikmalarni adsorbsiyalash qobiliyatini, adsorbsiyaning maksimal sig'imini, sirt maydoni, g'ovak hajmi va taqsimoti, adsorbsiya mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan;

neft sanoati chiqindi suvlarida sinovdan o'tkazilgan uglerodli adsorbentlar hona haroratida moy va neft mahsulotlarini 87-88 %, fenol birikmalarini 85-86 % gacha, mineral aralashmalar va suvda erigan yog'lar miqdori esa 90-97 % gacha tozalagan. Bu jarayonda suv-organik faza chegarasida molekullarning tezkor diffuziyalanishi va adsorbsiyasi hisobiga organik ifloslantiruvchi zarrachalarni yutilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar iborat:

ikkilamchi organik xomashyolar asosida termik va kimyoviy faollantirish jarayonlarini o'tkazishning metodik asoslari ishlab chiqilgan;

olingan ikkilamchi organik xomashyolar asosidagi adsorbentlardan foydalangan holda suvli eritmalaridan organik ifloslantiruvchi birikmalarni adsorbsion usulda tozalash jarayonlarini o'tkazish uchun maqbul shart-sharoitlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha ilmiy xulosalar zamonaviy va an'anaviy fizik-kimyoviy hamda analitik usullar yordamida olingan ilmiy ma'lumotlar bilan tasdiqlangan, ilmiy yangiliklarning amaliy natijalari esa "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJ laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitlarida o'tkazilgan sinov dalolatnomalari orqali tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ikkilamchi organik xomashyolarga termik va kimyoviy faollashtirish jarayonlarining metodikasini ishlab chiqish, kaliy gidroksiddan foydalanib ko'mir namunalarini kimyoviy faollashtirish jarayonlarini maqbul sharoitlarni aniqlash hamda ushbu ilmiy asoslar maqsadli xossalarga ega uglerodli materiallarni yaratish uchun asos bo'lilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turli muhitlarni tozalash uchun o'simlik ko'mirlarini termik hamda kimyoviy faollashtirish texnologiyasini ishlab chiqishni, oqova va tabiiy suvlarni organik ifloslantiruvchilardan zararsizlantirishga mo'ljallangan adsorbentlar olishni, shuningdek, kimyo, kimyoviy texnologiya va ekologiya sohalari bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida bakalavr hamda magistr mutaxassislarni tayyorlash jarayonida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Termik va kimyoviy faollashtirilgan uglerodli adsorbentlar olish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ikkilamchi organik xomashyolar asosida termik faollashtirilgan ko'mir adsorbentlari olish usuli ishlab chiqilgan va ularni qo'llash usullari "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJ ning "2026-2030 yillarda amaliyotiga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalarni ro'yxati"ga kiritilgan ("Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJning 2025 yil 10 sentyabrdagi 15/116-sonli ma'lumotnomasi asosida). Natijada, suv tarkibidagi moy va neft mahsulotlarini 55-62 %, fenollarni 59-68 %, og'ir metall

ionlarini 74–83 %, sulfidli birikmalarni 81–87 %, ammiak va ammoniyni esa 75–81 % gacha tozalash imkonini beradi;

termik va kimyoviy faollashtirilgan uglerodli materiallarni adsorbsion tozalash usuli amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, u “Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MChJ da tatbiq etilgan (“Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MChJ ning 2025-yil 10-sentyabrdagi №15/116-sonli ma‘lumotnomasi asosida). Natijada termik faollantirilgan namunalarga nisbatan KOH bilan faollashtirilgan ko‘mir adsorbentlar oqova suvlar tarkibidagi organik va mineral birikmalarning tozalash samaradorligi 1,2- 1,5 marta, nazorat ko‘mir adsorbentga nisbatan esa 2 marta ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 1 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari bo‘yicha 7 ta ilmiy maqola, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan jurnallarda 5 ta Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 96 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari bayon qilingan, tadqiqot ob‘ektlari va predmeti tavsiflangan, ishning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi yoritilgan, ilmiy yangilik, nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, olingan natijalarning joriy qilinishi, e‘lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ikkilamchi organik xomashyodan sorbentlar olish bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar”** deb nomlangan birinchi bobida sorbentlardan foydalanishning jahon rivojlanish yo‘nalishlari va ekologik jihatlari, sorbentlar klassifikatsiyasi va chiqindilardan olingan uglerodli materiallarning o‘rni, uglerodli materiallarining tasnifi va ularning sorbsion texnologiyalarda qo‘llanilishi, ikkilamchi organik xomashyolar asosida uglerodli adsorbentlar olishning afzalliklari va istiqbollari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Uglerodli sorbentlarning tuzilishi, tarkibi va xossalari ilmiy hamda amaliy asoslari ochib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot materiallari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida bobda xomashyo turlari, uni tayyorlash usullari, uglerodli sorbentlarni sintez qilish sharoitlari va ularni SEM, IQ-spektroskopiya, TG/DTA, BET usullari yordamida sirt tuzilishi va kimyoviy tarkibini o‘rganish natijalari keltirilgan.



1)




2)

1-rasm. Ikkilamchi xomashyolarning termik yaxlili: 1) Melaminlangan qog'oz; 2) Shina chiqindilari.

Uglerodli yuqori sorbsion g'ovaklik strukturasi shakllanish bosqichida yuzaga keladigan energetik barqarorlashuv jarayonlarini ifodalaydi. Bu xususiyatlar yakuniy mahsulotning adsorbsiyalovchi xossalarini, ya'ni sirt funksional guruhlarning faolligi, kislotali/asosiy markazlar soni, metall ionlar bilan kompleks hosil qilish qobiliyati kabi parametrlarni belgilab beradi.

Boshlang'ich uglerodli materiallarning teksturaviy xususiyatlari past haroratli azot adsorbsiya-desorbsiya usuli bilan aniqlangan. O'lchovlar 77 K da sorbsiya xossalarini avtomatik analizator yordamida bajarildi.



2-rasm . Namunalarda azot adsorbsiyasi-desorbsiyasi izotermalari.


Adsorbsiya-desorbsiya izotermalaridan ko'rinib turibdiki (2-rasm), karbonizatsiyalanmagan boshlang'ich namunalarda azot bo'yicha sorbsiya sig'imi nisbatan past bo'lib, bu bosqichda sirtning cheklangan rivojlanishi bilan izohlanadi. Karbonizatsiyalanmagan melamin qog'oz uchun aniqroq ifodalangan mikro'ovakli struktura kuzatilgan bo'lsa, rezina maydalarda esa mezog'ovaklarning ustunligi qayd etildi.

3-jadval

Boshlang'ich karbonizatsiyalanmagan materiallarning teksturaviy xususiyatlari

Namuna	S_{BET} m^2/g	$V\sigma$, sm^3/g	O'rtacha g'ovak radiusi, Å	Ustun bo'lgan g'ovak diapazoni, nm
Melamin qog'oz (karb.)	17,03	0,054	22,7	14-22
Rezina maydalari (karb.)	9,83	0,026	30,5	18-21,5


Boshlang'ich materiallarning struktura xususiyatlari rentgenofazali tahlil (XRD) va Furiye o'zgartirishli infraqizil spektroskopiya (FTIR) usullari yordamida aniqlandi. Rentgenofazali tahlil monoxromatizatsiyalangan $\text{CuK}\alpha$ nurlanishi ($\lambda = 1,5406 \text{ \AA}$) qo'llanilgan kukun difraktometrida olib borildi. O'lchovlar 2θ burchak diapazonida 5° dan 80° gacha, $0,02^\circ$ qadam bilan va har nuqtada 1 soniyalik yig'ish vaqtida bajarildi.




2-rasm . Namunalarning difraktogrammalari: 1) melaminlangan qog'oz; 2) shina chiqindilari.

Olingan difraktogrammalardan ko'rinib turibdiki, karbonizatsiyalanmagan melamin qog'ozida $2\theta \approx 23-24^\circ$ da joylashgan keng difraksiyon maksimum bilan xarakterlanadi, u (002) tekisligiga mos keluvchi grafitga o'xshash uglerod fazasini ifodalaydi, shuningdek $2\theta \approx 43-44^\circ$ atrofida kuzatilgan zaif maksimum (100) tekisligiga mos keladi. Bunday ko'rinish past darajadagi grafitlanish va amorf fazaning ustunligini ko'rsatadi. Rezina maydalari uchun ham shunga o'xshash rentgenografik bog'lanish kuzatildi: $2\theta \approx 24-25^\circ$ da (002) ga mos keluvchi yoyilgan pik va $2\theta \approx 43^\circ$ atrofida sust ifodalangan maksimum (100), bu esa uglerod matritsasining asosan amorf xarakterga ega ekanligini va kichik tartibli sohalarning mavjudligini tasdiqlaydi. Bragg qonuni asosida hisoblanganida, d_{002} oralig'i melamin qog'ozida uchun $\sim 0,37-0,38 \text{ nm}$, rezina maydalari uchun esa $\sim 0,36-0,37 \text{ nm}$ ni tashkil etdi, bu past strukturalashgan uglerodli materiallar uchun xosdir.

FTIR spektrlardan ko'rinib turibdiki, melamin qog'ozida uchun $3200-3500 \text{ cm}^{-1}$ oralig'ida keng tasma qayd etilgan bo'lib, u gidroksil guruhlari va adsorbsion suvning valent tebranishlariga mos keladi. $1640-1650 \text{ cm}^{-1}$ atrofidagi tasma karbonil guruhlarning tebranishlari bilan bog'liq. $1540-1560 \text{ cm}^{-1}$ oralig'ida melamin asosiga xos bo'lgan C-N tebranishlari kuzatiladi, $1230-1270 \text{ cm}^{-1}$ dagi tasma esa efir bog'laridagi C-O-C tebranishlariga tegishlidir. Rezina maydalari spektrida ham 3400 cm^{-1} sohasida -OH guruhlari uchun mos keluvchi sust tasma, 2850 va 2920 cm^{-1} da esa alifatik zanjirlardagi C-H valent tebranishlariga mos intensiv tasma qayd etildi. $1630-1640 \text{ cm}^{-1}$ da aromatik va vinil fragmentlarga xos C=C tebranishlari, shuningdek 1030 cm^{-1} dagi tasma C-O tebranishlari bilan bog'liqdir.




1)




2)

3-rasm . Namunalarining IK-spektrlari: 1) melaminlangan qog‘oz; 2) shina chiqindilari.

Melamin qog‘ozi nisbatan silliq yuzaga ega bo‘lib, unda mayda g‘ovakli struktura kuzatildi, bu esa selluloza karkasining va melamin-formaldegid smolasini ko‘rsatadi. Rezina maydalari esa dastlabki holatida makro- va mezorelyefli yuzasi, shuningdek, yoriqlangan struktura bilan ajralib turadi, bunday ko‘rinish kauchuk matritsasining termik destruksiyasi va texnik uglerod natijasida yuzaga keladi.



Melamin qogozı




Shina maydalari


4-rasm. Termik ishlangan namunalarning mikrotasvirlari.

“Ikkilamchi xomashyolar asosida uglerodli adsorbentlar olish va ularning strukturaviy xususiyatlari” mavzusidagi uchinchi bobda melaminlangan qog‘oz va shina chiqindisi asosida ko‘mir adsorbent olish, olingan namunalarni fizik-kimyoviy xususiyatlari, adsorbentlarda past haroratli azot, benzol molekullari adsorbsiyasini tahlil qilish, BET, t-Plot, HK, Temkin kabi modellar parametrlarini aniqlash va asosiy sorbsiya mexanizmlarini aniqlash kabi muhim natijalar keltirilgan .

Dastlab ikkilamchi xomashyolarni termik faollantirish jarayonidagi parametrlar (harorat, vaqt) o‘zgarishini o‘rganish maqsadida hosil bo‘lish unumdorligini piroliz davomiyligiga ta‘sirini hamda olingan uglerodli materiallarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlariga ta‘sirini tadqiq etildi.



1)




2)

5-rasm. Uglerodli materiallarning hosil bo'lish unumdorligini termik faollashtirish davomiyligiga (minut) ta'siri: 1) melaminlangan qog'oz chiqindisi ko'miri; 2) avtomashina shinasi chiqindisi ko'miri.


Termik faollashtirish jarayonida harorat va vaqtning o'zgarishi adsorbent hosil bo'lish unumdorligining asosiy omillaridan biridir. Melaminlangan qog'ozni 200-400°C harorat oralig'ida massa kamayishi 30-35 %, shina chiqindisi namunasida 28-30 % ni tashkil etdi. 400–600 °C oralig'ida namunalar tarkibidagi uchuvchi organik komponentlar chiqib ketishi natijasida hosil bo'lgan karbonizatlarning hosildorligi faollashtirish davomiyligi 1 soat vaqt davomida olib borilganda FK-M uchun 62 % ni, FK-A da esa 66 % ni, 2 soat davomiylik natijasida esa mos ravishda 60 va 64 % ni tashkil etdi. 700 °C dan yuqori haroratlarda esa uglerodning qisman gazlashuvi boshlanib, hosil bo'lish unumdorligi 62–66 % dan 54–59 % gacha kamayadi. Olingan natijalar asosida har ikki namuna uchun termik faollashtirish harorati 800°C da 60 minut davomida olib borish muqobil variant sifatida ko'rsatish mumkin.


KOH bilan faollashtirilgan namunalar termik faollashtirilganlarga nisbatan yuqori mikrog'ovaklikka ega bo'ladi, biroq umumiy hosil bo'lish unumdorligi pastroq bo'ladi. Bu holat uglerod tuzilmasining reaktivligi, faollashtiruvchi reagent bilan o'zaro ta'sir mexanizmi va energiya sarfiga bog'liq. Kimyoviy faollashtiruvchi reagentlar xom ashyo tarkibidagi organik komponentlarning parchalanish yo'nalishini o'zgartirib, karbonizatsiya bosqichida barqaror g'ovakli strukturaning shakllanishiga yordam beradi. Natijada, hosil bo'lgan adsorbentlarning sirt faolligi va mikrog'ovaklik darajasi sezilarli darajada ortadi.



6-rasm. Uglerodli materiallarning hosil bo'lish unumdorligiga kaliy ishqori konsentratsiyasining bog'liqligi.


IQ-spektral tahlil olingan uglerodli materiallarning strukturaviy transformatsiyasini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Turli xil xomashyolar tarkibida mavjud aromatik uglevodorodlar, azotli birikmalar, sulfid bog'lar va boshqa turdagi komponentlar termik va kimyoviy faollashtirish jarayonida sezilarli darajada o'zgaradi.





7-rasm. Ikkilamchi xomashyolar asosida olingan ko‘mir adsorbentlarning IQ-spektrlari: 1) FK-A:1; 2) FK-A:2; 3) FK-A:3; 4) FK-M:1; 5) FK-M:2; 6) FK-M:3.

Ikkilamchi xomashyolar asosida olingan ko‘mir adsorbentlarning 10, 20 va 30 % li KOH eritmaları bilan faollantirilgan namunalarning IQ-spektrlari ularning sirt kimyoviy tarkibidagi o‘zgarishlarni yaqqol namoyon etadi. 3500–3200 cm^{-1} atrofida keng yutilish chizig‘i –OH guruhlariga, ya‘ni fenol gidroksil guruhi, karboksil guruhdagi OH- va adsorbsiyalangan suv molekularining tebranishlariga mos keladi. 2920–2850 cm^{-1} diapazonidagi zaif intensivlikdagi cho‘qqilar C–H bog‘lari tebranishlarini bildiradi. 1700–1600 cm^{-1} oralig‘idagi yutilish chizig‘i karbonil (C=O) guruhlariga, xususan, keton, karboksil yoki lakton turlarining mavjudligini anglatadi. 1570–1450 cm^{-1} atrofida yutilishlar aromatik halqadagi C=C bog‘lariga, 1100–1000 cm^{-1} oralig‘idagi tebranishlar esa C–O–C va C–O kabi oddiy efir bog‘lari asosdagi funksional guruhlariga tegishli bo‘lib, ko‘mir sirtida kislorodli funksional markazlarning shakllanganini ko‘rsatadi.




8-rasm. Shina qoldiqlari asosida termik va kimyoviy faollashtirib olingan ko‘mir adsorbentlarning mikrotasvirlari: 1) FK-A:400; 2) FK-A:600; 3) FK-A:800; 4) FK-A:1; 5) FK-A:2; 6) FK-A:3.

Keltirilgan SEM tasvirlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, shina chiqindilari asosida olingan ko‘mirlarning sirt morfologiyasi termik va kimyoviy faollantirish darajasiga bevosita bog‘liq holda sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi. Dastlabki past haroratlarda faollantirilgan namuna sirtida nisbatan tekis, zich joylashgan va cheklangan g‘ovaklikka ega struktura kuzatilib, bu bosqichda shina polimer matritsasining to‘liq

parchalanmaganligini ko'rsatadi. Harorat ortib 600–800 °C gacha yetkazilganda sirt strukturasi ancha murakkab morfologik o'zgarishlar ro'y berganligini ko'rish mumkin.



Kimyoviy faollantirish jarayonida KOH konsentrasiyasining ortishi (10 %, 20 %, 30 %) sirt tuzilishining yanada faol ochilishi va morfologik notekislikning kuchayishiga olib kelgan. Past konsentrasiyalarda asosan sirtning qisman faollashuvi, mavjud g'ovaklarning kengayishi kuzatilgan bo'lsa, yuqori konsentrasiyadagi KOH eritmasi bilan ishlov berilgan namunalarda sirtida uglerodli komponentlarning chuqur karbonizatsiyasi va gaz fazasidagi mahsulotlar chiqishi natijasida sirt bo'ylab yirik yoriqlar, kanallar va o'zaro bog'langan mikrog'ovak–mezog'ovak tizimlari asosida hosil bo'lgan mikrog'ovaklarning mezog'ovak tizimlariga birikishini, karbonatlashish mahsulotlarining ajralishi va sirtning yanada notekis ko'rinishga ega bo'lishi aniqlangan.



9-rasm. Melamin qog'oz qoldiqlari asosida termik va kimyoviy faollashtirib olingan ko'mir adsorbentlarning mikrotasvirlari: 1) FK-M:400; 2) FK-M:600; 3) FK-M:800; 4) FK-M:1; 5) FK-M:2; 6) FK-M:3.



Dissertasiyaning “**Uglerodli materiallarning noorganik va organik birikmalarga nisbatan adsorbsion xususiyatlari**” deb nomlangan 4-bobida namunalarning azot, benzol bo'yicha adsorbsiyalanishi va sanoat oqova suvlari tarkibidagi organik-ifloslantiruvchi moddalarni uglerodli adsorbentlar yordamida samarali adsorbsiyalash natijalarini taqdim etilgan.

Termik faollashtirish usuli bilan olingan shina xomashyosi asosidagi uglerodli materiallarning 77 K da azot adsorbsiya–desorbsiya izotermalari IUPAC tasnifiga muvofiq asosan kombinatsiyalangan tipga – mikro va mezog'ovaklik yani I va IV tip izotermalarga mos keldi. Faollashtirish harorati 400°C dan 900°C gacha ortishi natijasida olingan namunalarda izotermalarida past nisbiy bosimlarda ($P/P_0 < 0.1-0.2$) adsorbsiyalangan azot miqdorining ko'p qismini yutilishi mikrog'ovaklarga yutilganligidan, bundan esa g'ovaklar miqdorini asosiy qismini mikrog'ovaklar tashkil etishini anglatadi.



Termik faollantirib olingan namunalarning Kimyoviy faollantirib olingan namunalarning
10-rasm. Shina xomashyosi asosida olingan namunalarning azot adsorbsiya-desorbsiya izotermalari.

Kimyoviy faollashtirilgan avtomashina shinasi xomashyosi asosidagi ko‘mir namunalarning azot adsorbsiya-desorbsiya izotermalari IUPAC tasnifiga ko‘ra asosan I tupdagi izotermalar xarakterini ko‘rsatdi, lekin KOH konsentratsiyasining oshishi bilan izotermalarda past nisbiy bosimlarda boshlang‘ich yutilish miqdori ortishi hamda umumiy yutilgan absorbtiv hajmi ortishi kuzatildi. Bu hodisa KOH faollantirish jarayonida birlamchi va ikkilamchi kimyoviy reaksiyalari natijasida turli gazlarni ajralib chiqishi, uglerod strukturasi yangidan shakllanishi va kaliy metalini qavatlar orasiga inetrkalitsiyalanishi natijasida yangi mikrog‘ovaklarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.



Termik faollantirib olingan namunalarning Kimyoviy faollantirib olingan namunalarning
11-rasm. Melaminlangan qog‘oz xomashyosi asosida olingan namunalarning azot adsorbsiya-desorbsiya izotermalari.

Barcha namunalarning adsorbsiya-desorbsiya izotermalari IV tipga xos ekanligini (uglerodli materiallarni mikro-va mezog‘ovaklik strukturaga ega ekanligini va kapillyar kondensatsiya bilan bog‘liq gisterzis halqasini hosil qilganini) ko‘rsatadi.

Kimyoviy faollashtirilgan melaminlangan qog‘oz chiqindisi asosidagi ko‘mir adsorbentlarning azot adsorbsiya-desorbsiya izotermalari IUPAC tasnifiga ko‘ra asosan IV turdagi izotermalar xususiyatlarini namoyon etadi. Past nisbiy bosimlarda ($P/P_0 < 0,1$) izotermalarning keskin o‘shishi mikrog‘ovaklarning rivojlanganligini bildirsa, yuqori bosim sohasida yutilishning davom etishi va namunalarning uchun gisterzis halqasining paydo bo‘lishi mezog‘ovaklar mavjudligidan dalolat beradi.

KOH konsentratsiyasi ortishi (10→30 %) bilan izotermalardagi boshlang'ich yutilish miqdori va umumiy adsorbsion hajm sezilarli oshib bordi, bu jarayon KOH ning ko'mir strukturasiidagi organik komponentlarga chuqur ta'siri - interkalatsiya, karbonat anhidrid gazi hosil bo'lishi va termik parchalanish natijasida yuzaning kengayishi, shuningdek, g'ovaklik strukturasiining qayta tashkil topishi bilan bog'liqdir.

4-jadval.


Termik va kimyoviy faollantirilgan namunalariining tekstur xususiyatlari

Namunalar	S^I , m ² /g	t -Plot*, m ² /g	V_a , sm ³ /g	V_b , sm ³ /g	R , Å	D , Å	D^* , Å
FK-A:400	224,893	83,881	0,275	0,076	24,793	14,301	3,712
FK-A:500	235,902	87,987	0,288	0,079	24,528	14,291	3,677
FK-A:600	244,896	91,342	0,299	0,082	23,376	14,248	3,626
FK-A:700	286,493	106,857	0,350	0,096	22,548	14,074	3,512
FK-A:800	346,529	129,249	0,423	0,116	21,724	13,815	3,428
FK-A:900	350,090	130,577	0,427	0,117	21,718	13,807	3,426
FK-A:1	581,630	216,928	0,711	0,195	19,364	13,117	3,218
FK-A:2	613,173	228,692	0,749	0,206	18,064	13,044	3,164
FK-A:3	607,461	226,562	0,742	0,204	180,68	13,047	3,165
FK-M:400	218,610	69,869	0,294	0,239	47,471	14,363	4,214
FK-M:500	250,886	80,349	0,338	0,275	46,627	14,109	4,148
FK-M:600	280,664	89,886	0,378	0,307	45,841	13,827	4,062
FK-M:700	401,931	128,723	0,541	0,440	44,652	13,128	3,874
FK-M:800	501,771	160,698	0,676	0,549	43,958	12,247	3,762
FK-M:900	484,944	155,301	0,653	0,530	43,971	12,254	3,768
FK-M:1	780,845	250,074	1,052	0,855	42,146	12,146	3,705
FK-M:2	838,101	268,411	1,129	0,917	41,971	12,108	3,687
FK-M:3	854,545	273,668	1,151	0,935	41,942	12,091	3,682


Termik va KOH bilan faollashtirilgan FK-A namunalariining sorbsion-struktur ko'rsatkichlari ularning faollantirish sharoitlariga sezilarli darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Termik faollantirish (FK-A:400–900) jarayonida harorat ortishi bilan BET yuzasi (S^I) 224,9 m²/g dan 350,1 m²/g gacha ortishi aniqlangan, bu esa uglerod strukturasi ichida mikrog'ovallar miqdorining shakllanishi va ularning kengayishi bilan izohlanadi. KOH bilan kimyoviy faollashtirish esa sezilarli darajada yuqori sorbsion ko'rsatkichlarni ta'minlagan: 10, 20 va 30 % li KOH konsentratsiyalarida (FK-A:1–3) BET yuzasi 581,6–613,2 m²/g oralig'ida bo'lib, umumiy yutilgan hajm 0,711–0,749 sm³/g gacha oshgan.

Melamin qog'oz chiqindisidan olingan FK-M namunalariida termik va kimyoviy (KOH) faollashtirish natijalari yanada aniqroq g'ovaklik dinamikasini ko'rsatadi. Termik faollantirishda (FK-M:400–900) BET yuzasi 218,6 m²/g dan 501,8 m²/g gacha, umumiy hajm esa 0,294 sm³/g dan 0,676 sm³/g gacha oshgan, bu esa 400–800 °C oralig'ida mikrog'ovaklarning shakllanishi va keyinchalik mezog'ovaklarga aylanishi ko'rsatadi. 900 °C da esa g'ovak devorlarining qisman birlashishi sababli yuzada adsorbsion maydonni pasayishi kuzatilgan. KOH bilan

faollashtirilgan namunalar (FK-M:1–3) esa eng yuqori sorbsion parametrlarni namoyon etib, yuzasi 780,8–854,5 m²/g gacha, umumiy yutilgan hajmi esa 1,052–1,151 sm³/g gacha yetgan. Bu jarayon KOH ta'sirida melamin strukturasiidagi azotli komponentlarning parchalanishi va uglerodli strukturaning qayta tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, nafaqat mikrog'ovaklar, balki kengaygan mezog'ovaklar tizimining shakllanishiga ham olib kelgan.



Shina chiqindilari asosida olingan namunalar



Melamin qog'oz chiqindilari asosida olingan namunalar

12-rasm. Olingan uglerodli materiallarning benzol bug'larini adsorbsiya izotermalari.

Termik faollashtirish haroratining oshishi bilan (400–900 °C) maksimal adsorbsion sig'im asta-sekin ortib borishini ko'rish mumkin, bu esa yuqori haroratlarda ko'mir strukturasiining karbonizatsiyasi chuqurlashib, g'ovaklar hajmi va o'rtacha sirt maydoni kengayganini ko'rsatadi. Faollantirish harorati 400°C dan 900 °C ga oshirilishi mos ravishda 1,66 mmol/g dan 2,61 mmol/g gacha benzolning adsorbsiyalash miqdori oshgani kuzatildi.

Kimyoviy faollashtirilgan namunalar (FK-A:1, FK-A:2, FK-A:3) termik faollashtirilgan namunalar bilan solishtirganda yuqori adsorbsion samaradorlikka ega bo'lib, bu esa KOH bilan faollashtirilishi natijasida uglerod skeletida mikrog'ovak va mezog'ovaklar tizimini hosil qilganini hamda benzol molekulariga nisbatan sirt energiyasini oshirganini bildiradi.

Melaminlangan qog'oz chiqindilari asosida olingan uglerodli materiallarning benzol bug'larini adsorbsiya izotermalaridan ko'rinib turibdiki, termik faollantirish haroratining oshishi (400–900 °C) va kimyoviy faollantiruvchi reagent konsentratsiyasining ortishi natijasida adsorbsiya miqdori sezilarli darajada oshgan.

Benzol bug'larining adsorbsiyasi asosan ko'mir sirtidagi mikrog'ovak va mezog'ovak strukturalarida Van-der-Vaals kuchlari hamda $\pi-\pi$ o'zaro ta'sirlari orqali amalga oshadi. Melamin komponentining parchalanishi natijasida sirtga kiritilgan azotli funksional guruhlar ($-\text{NH}_2$, $-\text{CN}$, $-\text{C}-\text{N}-$) adsorbat molekulari bilan qo'shimcha donor-akseptor bog'lanishlar hosil qilishi mumkin, bu esa adsorbsion energiyani oshiradi. Shu bilan birga, termik faollantirish jarayonida funksional guruhlarining bir qismi parchalanib ketadi, biroq kimyoviy faollantirish bu yo'qotishni qisman kompensatsiya qilinib, sirtni qayta faollashtiradi.

Adsorbentlarning benzol bo'yicha adsorbsiya izotermalari va BET tenlamalari asosida ularning struktur-sorbsion xususiyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ko‘mir adsorbentlarining benzol bug‘lari adsorbsiyasi bo‘yicha
struktur - sorbsion ko‘rsatkichlari

№	Namunalar	Monoqavat sig‘imi, a_m , mmol/g	Nisbiy naydoni, S , m ² /g	Mikrog‘ovaklar hajmi, V_a , sm ³ /g	Mezog‘ovaklar hajmi, V_b , sm ³ /g	G‘ovaklar o‘rtacha radiusi $r_{o'r}$, Å
1	FK-M:400	0,841	202,40	0,128	0,058	15,4
2	FK-M:500	0,877	211,14	0,132	0,029	15,2
3	FK-M:600	1,158	278,96	0,166	0,030	14,2
4	FK-M:700	1,909	459,72	0,261	0,031	12,6
5	FK-M:800	2,373	571,36	0,321	0,031	12,3
6	FK-M:900	2,471	594,94	0,333	0,031	12,2
7	FK-M:1	3,354	807,65	0,449	0,033	11,9
8	FK-M:2	3,686	887,58	0,492	0,035	11,9
9	FK-M:3	3,658	880,92	0,488	0,035	11,9
10	FK-A:400	0,751	180,75	0,118	0,025	15,9
11	FK-A:500	0,974	234,49	0,138	0,027	14,1
12	FK-A:600	1,217	293,00	0,164	0,028	13,1
13	FK-A:700	1,337	322,01	0,163	0,059	13,8
14	FK-A:800	1,404	338,04	0,173	0,051	13,5
15	FK-A:900	1,473	354,59	0,203	0,028	13,0
16	FK-A:1	2,378	572,65	0,311	0,027	11,8
17	FK-A:2	2,511	604,72	0,325	0,027	11,8
18	FK-A:3	2,465	593,47	0,320	0,026	11,6

Har ikki materialda g‘ovaklarning o‘rtacha radiusi $r_{o'r}$ 16 Å dan 12 Å gacha kamaygani mikrog‘ovaklarning ustunlik qilayotganini, ya’ni adsorbsiyaning asosan mikrog‘ovak strukturalarda kechishini bildiradi. Demak, kimyoviy faollantirishning ta’siri termik faollantirishga nisbatan ancha chuqurroq bo‘lib, bu jarayon natijasida hosil bo‘lgan yuqori sirt maydoniga ega, mikrog‘ovak tuzilmalari

XULOSA.

1. Ikkilamchi organik xomashyolar asosida tayyorlangan uglerodli materiallarning fizik va kimyoviy faollashtirish jarayonlarining optimal sharoitlari aniqlanib, faollashtirish harorati sifatida 800 °C va xomashyo:faollantiruvchi reagent (1: 20 %) eng maqbul sharoit ekanligi aniqlandi.

2. Uglerodli sorbentlarning teksturaviy va funksional xususiyatlari IQ-spektroskopiya, TG–DTA, XRD va SEM tahlil usullari yordamida o‘rganildi. Termik faollantirish jarayonida melamin qog‘oz chiqindisi asosida olingan namunalarda amin, fenol hamda karboksil guruhlarning qisman saqlanib qolishi aniqlangan bo‘lsa, kimyoviy faollashtirish bosqichidan so‘ng har ikki xomashyo asosida olingan namunalarda –OH, –C=O va –COOH tipidagi funksional guruhlarning faol sirt markazlarini shakllantirgani kuzatildi.

3. Faollantirish haroratining oshirilishi bilan azot adsorbsiya–desorbsiya tahlili asosida solishtirma sirt maydoni (S^1) FK-M uchun 218,61 dan 501,77 m²/g gacha, FK-A uchun esa 224,89 dan 350,09 m²/g gacha oshgani kuzatildi. Shuningdek, mikrogʻovaklar yuzasi (FK-M uchun 69,87→160,70 va FK-A uchun 83,88→130,58) va mikro–mezogʻovaklar hajmlari ham deyarli bir yarim baravar ortishi aniqlandi.

4. Kimyoviy faollantirilgan sorbentlarning teksturaviy koʻrsatkichlari termik faollantirilgan namunalarga nisbatan keskin oshgani aniqlandi. Masalan, FK-A:800 namunasi uchun sirt maydoni 346,53 m²/g boʻlsa, FK-A:3 uchun bu koʻrsatkich 607,46 m²/g gacha, FK-M:800 uchun esa 501,77 m²/g dan FK-M:3 854,545 m²/g gacha ortdi. Shu bilan birga faollantiruvchi reagent konsentrasiyasi 20 % dan 30 % ortganda sorbsion struktur xususiyatlarga katta taʼsir koʻrsatmaganligi (FK-A namunasi uchun 613,17→607,46 m²/g va FK-M namunasi uchun 838,10→854,54 m²/g) aniqlandi.

5. Termik ishlov berish haroratining oshishi va faollantiruvchi reagent konsentrasiya ortishi bilan namunalarda benzol bugʻlari boʻyicha adsorbsion samaradorligi organligi kuzatildi. Bu uchuvchi komponentlarning yonishi va mikrogʻovaklarning shakllanishi tufayli haroratning oshishi bilan gʻovakli strukturaning yanada samarali rivojlanishini aks ettiradi.

6. Ikkilamchi organik xomashyolar asosida termik faollashtirilgan koʻmir adsorbentlari oqova suv tarkibidagi moy va neft mahsulotlarini 55–62 %, fenollarni 59–68 %, ogʻir metall ionlarini 74–83 %, sulfidli birikmalarni 81–87 %, ammiak va ammoniyni esa 75–81 % gacha tozalash imkonini bergan. Termik faollantirilgan namunalarga nisbatan KOH bilan faollashtirilgan koʻmir adsorbentlar oqova suvlar tarkibidagi organik va mineral birikmalarning tozalash samaradorligi 1,2- 1,5 marta, nazorat koʻmir adsorbentga nisbatan esa 2 marta ortgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/08.05.2025.К/Т.130.04
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ
КОКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАМЗАХУЖАЕВ АСРОРХУЖА АХРОРХУЖА УГЛИ

**ПОЛУЧЕНИЕ ВЫСОКОСОРБЦИОННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ
ВТОРИЧНОГО ОРГАНИЧЕСКОГО СЫРЬЯ И ИССЛЕДОВАНИЕ ИХ
АДСОРБЦИОННЫХ СВОЙСТВ**

02.00.11 – Коллоидная и мембранная химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Коканд-2025

The subject The subject of the PhD thesis has been registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.4.PhD/K902.

Dissertation work completed at the Institute of Kokand state university.

Abstract of the thesis in three languages (Uzbek, Russian and English (resume)) posted on the web site of «ZiyoNet» to the address www.ziyo.net.uz.

Academic Supervisor: **Paygamov Rakhimjon Abdukayumovich**
doctor of philosophy (PhD) of chemistry, associate professor

Official opponents: **Mamataliev Nozim Nimadjanovich**
Doctor of Chemical Sciences

Abdulkhayev Tolibjon Dolimjonovich
Doctor of Chemical Sciences, Associate Professor

Leading organization: **Tashkent Institute of Chemical Technology**

The defense will take place «27» december 2025 at 10⁰⁰ o'clock at the meeting of on-time scientific Council No PhD.03/08.05.2025.K/T.130.04. at Kokand state university (Address: 150700, Kokand city, Turon street, 23. (+99873) 542-38-38, (+99873) 542-02-57; faks: (+99873) 542-38-38, e-mail: kokandsu@exat.uz).

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Kokand state university, (is registered under № 29). Address: 150700, Kokand city, Turon street, 23. (+99873) 542-38-38, (+99873) 542-02-57; faks: (+99873) 542-38-38, e-mail: kokandsu@exat.uz

Abstract of dissertation sent out on «16» december 2025 y.
(mailing report № 4 from «16» december 2025 y.)

**V.U Khujayev**
Chairman of the scientific Council awarding scientific degrees,
doctor of chemical sciences, professor

N.V. Valiyev
Scientific secretary of the scientific Council awarding scientific degrees,
PhD, docent

G.M. Ochilov
Chairman of the scientific seminar at the Scientific Council
for the award of an academic degree,
Doctor of chemical Sciences, professor

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в последние годы широко изучаются сорбенты, получаемые из вторичного органического сырья, как одно из актуальных направлений в области охраны окружающей среды и восстановления ресурсов. Такие сорбенты получают из возобновляемых источников, таких как биомасса, продукты питания, бумага, древесина, полимеры и бытовые отходы, а содержащиеся в них углеродные соединения с помощью термических, химических или комбинированных методов активации превращают в адсорбенты с высокой пористостью. Сорбенты на основе вторичного органического сырья, благодаря высокой площади поверхности, наличию различных функциональных групп и наличию иерархических пористых структур на микро-мезо-макроуровне, обладают свойством эффективно адсорбировать ионы тяжелых металлов, органические загрязнители, нефтепродукты и газовые смеси. В то же время, поскольку их производство дешево, экологически чисто и обеспечивает вторичную переработку отходов, большое значение имеет их использование в промышленных масштабах в системах очистки воды и воздуха, в качестве каталитической основы и при получении материалов для хранения энергии.

Во всем мире ведутся масштабные научные исследования по получению углеродных адсорбентов из возобновляемых источников с учетом экологических и экономических требований. В частности, получение дешевых, экологически чистых и высокоэффективных адсорбентов за счет использования вторичного органического сырья не только не наносит вреда окружающей среде, но и позволяет использовать отходы в качестве вторичного сырья. Это позволяет внедрять инновационные подходы, снижающие ресурсоемкость, совершенствующие технологии очистки и обеспечивающие их долгосрочную эффективность. Особое внимание уделяется научным и практическим аспектам разработки технологии получения углеродных адсорбентов на основе вторичного органического сырья для очистки природных и промышленных сточных вод от различных загрязняющих веществ и отделения продуктов производства от примесей.

В республике проводятся масштабные научные исследования по получению эффективных адсорбирующих материалов на основе местного сырья и отходов и их применению в процессе очистки сточных вод от органических загрязнителей, в том числе нефтепродуктов и их производных, а также других стойких органических соединений. В третьем направлении Стратегии развития нового Узбекистана поставлены задачи ¹«Продолжение промышленной политики, направленной на обеспечение устойчивости национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, увеличение объема промышленной продукции в 1,4 раза». В этой связи важное значение имеют научные исследования, направленные на получение углеродных адсорбентов на основе вторичного органического сырья, глубокое изучение их физико-химических и структурных свойств, а также определение взаимосвязи

¹Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

между условиями активации, составом сырья и эффективностью адсорбции получаемых продуктов.

